



PROFESSIONAL MULOQOTDA MUVAFFAQIYATLI BO'LISH

*TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI XORIJIY FILOLOGIYA VA TILLARNI
O'QITISH FRANSUZTILI YO'NALISHI 124-GURUH 2-BOSQICH TALABASI
NORBOYEV YULDUZ*

Ushbu maqola professional muloqotda muvaffaqiyatli bo'lishning asosiy omillari va shrt-sharoitlari tahlil qilinadi. Kasbiy muvaffaqiyat inson bilim va malakasiga emas, balki uning mas'uliyati, muloqot madaniyati, jamoda ishlash ko'nikmasi va shaxsiy fazilatlariga ham bog'liqligi yoritiladi.

REJA:

1. Muvaffaqiyat nima?
2. Professional muloqotning mohiyati
3. Muloqot madaniyatining rivojlantirish yo'llari
4. Xulosa

1. Muvaffaqiyat nima?

Muvaffaqiyat biz uni tez-tez eshitamiz. Asosan barcha istagan narsaning oxiri-bu muvaffaqiyatdir!

Ko'pchiligimiz muvaffaqiyatga tezroq erishishni xohlaymiz uning zamirida turgan ulkan mehnatni aylanib o'tishga harakat qilamiz. Bu muvaffaqiyat ortidan bazan yiqilamiz. Yiqilganimizda esa tezda tushkunlikka tushib qolamiz. Lekin biz harakat qilmasak tog' cho'qqisiga chiqa olmaymiz. Yo'lda yiqilishlar, noto'g'ri yo'llar va istiroblar bo'ladi. Chunki muvaffaqiyat katta qiyinchiliklarsiz va xatolarsiz bo'lmaydi.

Muvaffaqiyat-biror ishda erishilgan natija, g'alaba yo yutuqdir. Inson maqsadlariga erishish va orzularni amalga oshirish katta o'rin tutadi.



NATIJA: Biror ish nihoyasiga yetkangandan keyingi xursandchilik.

YUTUQ: Raqobatdoshlarini ortda qoldirib erishilgan holat.

G'ALABA: Oldinga qo'yilgan maqsadga erishish va muvaffaqiyat egasi bo'lish

Hozirgi kunda ko'pchilik insonlar diqqat yetishmasligi buzilishining mavjudligi haqida gapiradi va bu odamlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Agar inson sevimli mashg'ulotini topsa, diqqatini unga qaratishi mumkin. Amerikalik taniqli rejissor Norman Jevison shunday deydi: "Menimcha hayotdagi hamma narsa diqqatingizni bir narsaga qartish va o'zingizni unga bag'ishlash qobiliyatingizga bog'liq".

2. Professional muloqotning mohiyati-bu o'zaro hurmat, axloqiy me'yorlar va madaniy qadriyatlarga asoslangan. Axborot uzatish, to'g'ri tushunish, hurmat-e'tibor, tinglashni ham o'z ichiga oladi. Professional muloqot quyidagi jihatlar orqali o'z mohiyatini namoyon etadi.

Maqsadga yo'naltirganlik-har suhbat aniq natijaga erishishga qaratiladi.

Aniqlik va lo'ndalik-ortiqcha so'zlarsiz, aniq va tushunarli fikr bildirish

Madaniyat va odob-suhbat davomida, nutq madaniyatiga rioya qilish, boshqalarning fikrini hurmat qilish va e'tiborga olish

Faol tinglash-suhbatni diqqat bilan tinglash fikrini hurmat qilish va muqallash

Emotsional barqarorlik-muloqot jarayonida hissiyotlarga berilmasdan vaziyatni oqilona baholash.

Professional muloqotning mohiyati-bu kasbiy maqsadlar, madaniyatlar va bir-biriga bo'lgan ishonch asosida qurilgan aloqa tizimi.

Professional muloqotning mohiyatida shaxsiy fazilatlarining o'rni beqiyosdir. Mehnatsevarlik, sabr-toqat, intizom, qat'iyat, o'ziga ishonch, ijobiy fikrlash insonni kasbiy va hayotiy jihatdan o'sishda katta yordam beradi. O'z ustida



ishlash doimiy shug'ullanish, rivojlanishga intilish, o'z xatolarini tan olish va ularni o'z vaqtida bartaraf etish professional yetuklik mohiyatini anglatadi.

3. Muloqot madaniyatini rivojlantirish zamon talabi bo'lib bormoqda. Chunki muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi har bir jamoaning ko'proq o'z ustida ishlashga, muvaffaqiyatiga olib keladi. Muloqot madaniyatining bir nechta yo'llar bilan rivojlantirish mumki:

Nutq madaniyatini oshirish. To'g'ri talaffuz, so'z boyligining ko'pligi (albatta buning uchun ko'plab asarlar o'qish) aniq ifodalash muloqotni kutgandek qiladi.

Axloqiy qadriyatlarga amal qilish. Hurmat, sabr, e'tibor va muvofiqlik muloqotning asosini tashkil etadi.

Muloqot madaniyatini rivojlantirishda ijodkorlik va tashabbuskorlik ham zarurdir. Har bir mutaxassis o'z ishiga yangicha yondashuvlarni qo'llasa, innovatsion g'oyalarni ilgari sursa, bu shaxsiy rivojlanish balki jamoaviy rivojlanish ham bo'ladi. Zamonaviy dunyoda fikrlar xilma-xilligi, yangi g'oyalarni ilgari surish juda ham zarurdir. Jamoaviy bo'lib ishlash esa muloqotning rivojlanishi uchun marraga tezroq yetib borishdir. Har bir inson yakka holda natijalarga kechroq erishadi. Jamoada esa o'zaro yordam, harxil fikrlar, fikr almashish esa masalaga tezroq yechim topishga olib keladi. Jamoada ishlash insonni ijtimoiy faollikka, mas'uliyat va o'z ustida qattiq mehnatga talab qiladi. Chunki har bir xodim jamoadoshlaridan qolib ketishni xohlamaydi. Bu esa jamoalararo o'zaro o'sishni, rivojlantirishni kuchaytiradi.

4. Xulosa qilib aytganda professional muloqotning mohiyati-bu maqsadga yo'naltirilgan, madaniyatli, samimiy va ishonch asosidagi axborot almashishdir. Bugungi kunda har qanday sohada muvaffaqiyat kaliti moslashuvchanlik, innovatsion fikrlash va muloqot madaniyati kuchayib ketgan. Zamon o'zgarib bir paytlar yetarli bo'lgan bilim va ko'nikmalar hozirga kelib



eskirib boryapdi. Shuning uchun har bir mutaxassis jamoada muloqot o'rnatish, muammoni hal qilishi, stressni boshqarishni, moslashuvchanligi bilan muvaffaqiyatga erishadi. Inson rivojlanishi uchun o'zini tahlil qilishi kerak, bu degani o'zini tanqid qilib haddan tashqari o'ziga bo'lgan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi degani emas albatta. O'zi uchun foydali shug'ullanish kerak. Buyuk shoir Alisher Navoiy hazratlari "Mahbub ul-qulub" asarida xushmuomalilikni ulug'lab, inson husniga ko'rk beruvchi go'zal va chidamli matosi deb tariflaydi. Xushmuomalilikda axloqiy me'yorlar mavjud: o'zgani ranjitmaslik, birovga yomon so'z aytmaslik, bahs munozarada muxolifni hurmat qilish, qo'rslik va chapanilikdan xoli bo'lish talab etiladi. Biz yoshlar ham bu fazilatlarni o'zimizda mujassam etsak professional muloqotimiz muvaffaqiyatli cho'qqilarni zabt etardi.

Kalit so'zlar: Professional muloqot, muloqot madaniyati, samaradorlik, axloqiy me'yorlar